



MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR HUQUQIY HOLATINING TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrası

o'qituvchisi

Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy muhofaza qilish tushunchasi haqida to'la va to'g'ri tasavvurga ega bo'lish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bilan aloqador munosabatlarni huquqiy tartibga solishga taalluqli huquq normalarining o'ziga xos jihatlari to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lish, ularni oqilona muhofaza qilishga xizmat qilishning mohiyati yoritilgan. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy muhofaza qilishga taalluqli munosabatlarning yuridik tabiatini tahlil qilish nazariy jihatdan ham, qonunchilikni takomillashtirish va uni amalda tatbiq etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, eko harakat, akvatoriyalar, suv fondi, atmosfera, biosfera, litosfera

Bugungi kunda O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy holati muammolari bo'yicha ilmiy izlanish olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy muhofaza qilish



tushunchasi mazmun-mohiyatini ochib berish ilmiy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi, zero, ushbu muammo hanuz ilmiy-nazariy manbalarda to'liq tadqiqot predmeti bo'lmay kelmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy muhofaza qilish tushunchasi mazmunini ochib berish, ushbu mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Holbuki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy muhofaza qilish tushunchasi to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lmay, uning mohiyatini to'la anglab yetmay ularni huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni tushunish mumkin emas.

Ekologiya huquqiga oid ilmiy adabiyotlarda bildirilgan fikrlarga ko'ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlari tushunchalarini bir xilda tushunish to'g'ri emas. Chunki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasiga shu maqsadlarga ajratib berilgan yer uchastkalaridan tashqari suv kengliklari (akvatoriyalar), baliq xo'jaligi tegralari, sharsharalar va boshqalar ham kiradi. Demak, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasi shu hududlar yerlari tushunchasidan ancha kengdir. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi suv kengliklari, sharsharalar, boshqa suv yoki o'simlik bilan qoplangan hududlar ham shu hududlar yerlarining tarkibiy qismini tashkil etadi, yoxud suv yoki o'simlik bilan qoplangan hududlar ham yer fondi toifasiga kiritiladi (masalan, suv fondi yerlarini suv bilan qoplangan va suv bilan qoplanmagan yerlar, o'rmon fondi yerlarini o'rmon bilan qoplangan va o'rmon bilan qoplanmagan yerlar tashkil etadi). Shu jihatdan qaraganda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlari bir-biriga yaqin xil ma'noni beradi deb tushunish ham mumkin¹.

¹ Ўзбекистонда ер ҳуқуқининг назарий муаммолари. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011, 296-бет



Yuridik adabiyotlarda e'tirof etilishicha, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar deganda, yerlar va suv kengliklari (akvatoriyalar)ning ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik qismlari tushuniladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar deb atalashining asosiy sababi shundaki, bu hududlar noyob o'simlik va hayvonot dunyosini, mineral suvlar hamda tabiat yodgorliklarini saqlash uchun o'ta ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya sog'lomlashtirish ahamiyatiga egadir. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar deganda esa davlatning tegishli organlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya, tarixiy-madaniy maqsadlar uchun ajratib berilgan yer maydonlari tushuniladi². Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining muhim jihatlarini o'rganishdan oldin, ular tushunchasi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim.

“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar”ning o'ziga xos jixatlariga to'xtalib, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, ular o'zining alohida ahamiyatiga (tabiatni muhofaza qilish, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsion, sog'lomlashtiruvchi) ko'ra, davlat organlari qarori bilan xo'jalik muomalasidan to'la yoxud qisman chiqarib olingan yerlar guruhidir. Muhofaza etiladigan hudud – bu biologik xilma-xillikni hamda tabiiy resurslar va ular bilan bog'liq madaniyat elementlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan, bunday maqsadga xos bo'lgan qonuniy va ma'muriy boshqaruv tartibiga bo'ysungan quruqlik va (yoki) dengiz qismi (IUCN 1994) hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarni o'rganish shundan dalolat beradiki, “muhofaza etiladigan tabiiy hududlar”ga ko'plab olimlar tomonidan tushuncha ishlab chiqilgan. Masalan, V.V.Petrovning fikriga ko'ra, ularga “ekologik, madaniy-

² Ер ҳукуқи. –Т.: ТДҮОИ, 2002. 245-6.



sog'lomlashtirish vazifasini bajaruvchi hamda inson xo'jalik (antropogen) ta'siridan muhofazaga muhtoj bo'lgan yer qa'ri, suv, o'rmon uchastkasi"³ kiradi.

A.M.Alikiyevaning qayd etishicha, "muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – alohida tabiatni muhofaza qilish, ilmiy, tarixiy-madaniy, estetik, rekreatsiyaviy, sog'lomlashtiruvchi va boshqa qimmatli xususiyatlarga ega bo'lgan yerlar kiradi hamda ularni olib qo'yishning va ularda cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishning alohida tartibi belgilanadi"⁴.

N.V.Gulak va YE.A.Bevzyuklarning yozishicha esa, "muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga alohida tabiatni muhofaza qilish, ilmiy, tarixiy-madaniy, estetik, rekreatsiyaviy, sog'lomlashtiruvchi va boshqa qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan, xo'jalik muomalasidan va foydalanuvidan chiqarilgan yerlar tushuniladi. Ushbu yer fondi toifasi uchun alohida huquqiy tartibot belgilanadi"⁵.

A.A.Traninning yozishicha, "muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – bu hudud (akvatoriya) uchastkasi bo'lib, tabiiy yoki sun'iy kelib chiqqan hamda alohida ekologik, ilmiy, davolash va estetik ahamiyatiga ega bo'lgan, tabiat namunalari, tipik va noyob landshaftlar, ekotizim, o'simlik va hayvonlar irsiy fondi va diqqatga sazovor tabiiy hosilalarni tabiat tabiiy jarayonlarini o'rganish, tabiatning alohida unsurlarini saqlab qolish, tiklash va ko'paytirish, xo'jalik faoliyati ta'sirida BIOSferedagi o'zgarishlarni nazorat qilish, tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qilish sohasida targ'ibot-tashviqot va ta'lim-tarbiya, shuningdek, muayyan hollarda rekreatsion maqsadlarda foydalanish uchun saqlab qolishni ko'zda tutib, xo'jalik faoliyatidan qonunda belgilangan maxsus tartibda to'liq yoki qisman, doimiy yoxud vaqtinchalik olib qo'yilgan tabiiy

³ Петров В.В. Экологическое право России. Учебник для вузов. –М.: БЕК, 1995. 466 с.

⁴ Аликиева А.М. Земельное право. Учебное пособие. 3-изд. –Тюмень: ТГУ, 2010. С. 238

⁵ Гулак Н.В., Бевзюк Е.А. Земельное право. Учебное пособие. –Оренбург: РИУ ГОУ ОГУ, 2005. С. 62



kompleks va obyektlarni qamrab oladi”⁶. A.A.Tranin tomonidan ishlab chiqilgan ushbu ta’rif muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasini to’la ochib beradi desak to’g’ri bo’ladi.

G.V.Chubukov ham “muhofaza etiladigan tabiiy hududlar umummilliy boylik obyektlari sirasiga kiradi hamda respublika yoki munitsipal mulkchilikda bo’ladi, qonunchilikda belgilangan hollarda ular tarkibiga fuqarolar va yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo’lgan yer uchastkalari ham kiritilishi mumkin”⁷, deb qayd etadi.

I.A.Pavlovskiy esa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga alohida tabiatni muhofaza qilish, ilmiy, tarixiy-madaniy, estetik, rekreatsiyaviy, sog’lomlashtiruvchi va boshqa qimmatli ahamiyatga ega bo’lgan hamda vakolatli davlat hokimiyati organining qaroriga muvofiq xo’jalik muomalasidan to’liq yoki qisman chiqarilgan va alohida huquqiy tartiboti belgilangan yerlar sifatida ta’rif beradi⁸.

L.V.Vorobyeva muhofaza etiladigan tabiiy xududlarning huquqiy holati xilma-xil normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishiga e’tibor qaratib, ular tarkibiga davlat tabiat qo’riqxonalari, shu jumladan, BIOSfera, davlat tabiiy buyurtmaxonlari, tabiat yodgorliklari, milliy parklar, tabiiy parklar, dendrologiya parklari, botanika bog’lari, shuningdek, davolovchi-sog’lomlashtiruvchi hududlar va kurortlar kirishini qayd etib o’tadi⁹.

D.M.Umarovning yozishicha esa, “muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga davlat tabiat qo’riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtmaxonalar, davlat BIOSfera

⁶ Транин А.А. Национальные парки в СССР: проблемы и перспективы (организационно-правовые аспекты). –М.: Наука, 1991. С. 21.

⁷ Чубуков Г.В. Земельное право России. Учебник. –М.: Издание г-на Тихомирова М.Ю., 2002. С. 213

⁸ Павловский И.А. Земельное право. Конспект лекций. –М.: МИЭМП, 2004. С. 53

⁹ Воробьева Л.В. Земельное право: Учебно-метод. пособие. –Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2004. С.26



rezervatlari, davlat tabiiy parklari, davlat tabiat yodgorliklari, alohida tabiat obyektlari va majmualarini qayta tiklash va saqlash, ularni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar kiradi"¹⁰.

Maxsus ilmiy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tushunchasini ochib berishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish zarur: har bir muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga xos bo'lgan umumiy, asosiy maqsadning mavjudligi, bu tabiiy obyektlarni, tabiiy komplekslarni, biologik xilma-xillikni va umuman atrof tabiiy muhitni saqlab qolishda ifodalanadi; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ularning belgilangan maqsadlaridan kelib chiqqan holda yuklatilgan vazifalarning xilma-xilligi; toifasidan kelib chiqib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo'jalik faoliyatining ta'qiqlanishi yoki cheklanishi; maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda alohida huquqiy rejim o'rnatilishidir¹¹.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatidagi asosiy xususiyatlardan biri uning 10 % idan oshmagan ma'lum qismida mutlaq qo'riqxonalar maqomining o'rnatilishidir va unda tabiiy jarayonlarga har qanday aralashuv man etilishidir. Qo'riqxonaning tabiiy holatini to'liq muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida qo'riqxonalar hududi atrofida qo'riqlanma zonalar belgilanadi.

Demak, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini differentsiatsiya qilish imkonini beruvchi samarali mexanizmlardan biri hududni zonalashtirish hisoblanadi. "Zonalashtirish – bu muhofaza etiladigan tabiiy hududni ilmiy-asoslantirgan holda faoliyat ko'rsatish va muhofaza qilishning turli rejimlari

¹⁰ Умаров Д.М. Правовое регулирование охраны заповедников в Республике Узбекистан: Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т.: ТГЮИ, 2009. С. 154-155

¹¹ Зозуля В.В. Правовой режим государственных природных заповедников и национальных парков: Дисс. ... канд. юрид. наук. –М., 2006. С. 17



amal qiluvchi uchastkalarga bo‘lish”¹². O.M.Kozir¹³ hududni zonalashtirishni yerdan foydalanish bo‘yicha cheklashlarni belgilash metodlaridan biri sifatida ko‘radi.

Hududlarni zonalashtirish cheklovlarni o‘rnatishning bir usuli sifatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda va ular faoliyatida juda keng qo‘llanadi. Bunda quyidagicha zonalar belgilanishi mumkin: qo‘riqxonalar zonasi, qo‘riqlanma zonalar, suvni muhofaza qilish zonalar, sohilbo‘yi mintaqalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo‘lish zonalar, sanitariya muhofazasi zonalar, baliq xo‘jaligi zonalar, rekreatsiya, xo‘jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalar, kurort zonalar, muhofaza etiladigan landshaft zonalar, ilmiy-tajriba zonalar va qonunchilikka muvofiq boshqa zonalar.

Qo‘riqlanma zonalar – bu davlat qo‘riqxonalar, buyurtma qo‘riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar hisoblanadi. Qo‘riqlanma zonalarida ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta‘sirning oldini olish uchun xo‘jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyat cheklanadi yoki taqiqlanadi. Qo‘riqlanma zonalarining o‘lchamlari va rejimi, shuningdek yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilanadi.

Yuridik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, “qo‘riqlanma zonalar – bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda tashkil etiladigan yer, yer qari, suv va havo makoni bo‘lib, ular doirasida maxsus rejim o‘rnatiladi hamda xo‘jalik va boshqa faoliyat

¹² Меллума А.Ж. Особо охраняемые природные объекты на староосвоенных территориях. –Рига, 1988. 176 с.

¹³ Козыр О.М. Концепция развития законодательства РФ о зонировании территорий //Экологическое право России на рубеже XXI века. Сборник научных статей преподавателей и аспирантов кафедры экологического и земельного права юридического факультета МГУ им. М.В. Ломоносова, посвященный памяти профессора В.В. Петрова. Составители: А.К. Голиченкова, Т.В. Петрова. /Под ред. проф. А.К. Голиченкова. –М.: Зерцало, 2000. 227 с.



muhofaza etiladigan tabiiy hududlar zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida istisno etiladi”¹⁴.

Qo‘riqlanma zonalar tashkil etish masalasi, yuqorida qayd etilganidek, muhofaza etiladigan tabiiy hududni loyihalashtirish bosqichidayoq hal etilishi lozim, zero, hudud uchastkasini kompleks ekologik tadqiq qilishga oid hujjatlar, majburiy davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladi. Qo‘riqlanma zonalar o‘lcham va chegaralarini davlat hokimiyat organi tomonidan tasdiqlanishi qo‘riqlanma zonalarga shunga muvofiq huquqiy maqom berilishini kafolatlaydi hamda noyob va tipik tabiiy kompleks va obyektlarni, muhim tabiiy tuzilmalarni, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini, ularning irsiy fondini saqlab qolishga qaratilgan vazifalarini samarali bajarilishini ta‘minlaydi.

Davlat qo‘riqxonalari, buyurtma qo‘riqxonalar va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar qo‘riqlanma zonalar hisoblanadi. Qo‘riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta‘sirning oldini olish uchun xo‘jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyat cheklanadi yoki ta‘qiqlanadi. Qo‘riqlanma zonalarning o‘lchamlari va rejimi, shuningdek, yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilanadi.

Harakatdagi qonunchilikka ko‘ra davlat qo‘riqxonasi qo‘riqlanma zonasining bir qismi ekologik turizmni tashkil etish, mazkur hudud uchun xos bo‘lgan noyob hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simliklar va hayvonlarning turlarini ko‘paytirish maqsadida tabiiy pitomniklar barpo etish uchun hamda qo‘riqxonaning boshqa ehtiyojlari uchun shu qo‘riqxonaning o‘ziga topshirilishi mumkin.

¹⁴ Зозуля В.В. Правовой режим государственных природных заповедников и национальных парков. Дисс. на соиск. учен. степ. к.ю.н. -М., 2006



Ushbu hududlarni saqlab qolishni kafolatlovchi huquqiy talablar yer, suv, o'rmon va boshqa tarmoq qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Qo'riqlanma zonalarda yer va suvdan foydalanishda cheklash bilan bir qatorda ov, baliqchilik, o'rmondan foydalanish va tabiiy resurslardan foydalanishning boshqa shakllarini ta'qiqlash yoki cheklashga ham yo'l qo'yilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashda ushbu hududlar faoliyatini tartibga soluvchi Nizomlar ham muhim o'rinni egallaydi. Chunonchi, Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi nizomining 4- va 5-bandlariga muvofiq, qo'riqxona yerlari tabiatni muhofaza qilish ahamiyatidagi yerlar toifasiga mansubdir. Qo'riqxona yerlarida ularning maqsadiga zid keluvchi faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi; yer, suv, yer qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi qo'riqxona himoyasi ostida bo'ladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatini belgilashdan asosiy maqsad tabiiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish va foydalanish, ularning hozirgi holatini tahlil qilish, ulardagi o'zgarishlarni bashorat qilish va mintaqada tabiiy resurslardan barqaror foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish, tipik va noyob tabiiy komplekslarni va biologik xilma-xillikni o'rganish va saqlab qolish, tabiiy jarayonlar monitoringini yuritish, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning ilmiy asoslarini joriy etishdan iborat.

Bundan tashqari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatiga ko'ra himoya ostiga olingan butun tabiiy kompleksni tabiiy holatda saqlab qolish hamda himoya va o'tish zonalarini belgilash; amaliy va nazariy ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish; ishga tushirilishi qo'riqxona hududiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik va boshqa obyektlar loyihasining ekologik ekspertizadan o'tkazilishi; tabiatni muhofaza qilish sohasida ilmiy kadrlar va mutaxassislar tayyorlashda hamkorlik qilish; ekologik bilimni targ'ib qilish; global ekologik monitoringda



ishtirok etish; barqaror rivojlanishning uslublarini ishlab chiqish; ko'rgazmali loyihalarni yaratish va o'qitishni tashkil etish orqali barqaror rivojlanish usullarini joriy etish maqsadi nazarda tutiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ularning vazifalari va alohida muhofaza qilish talablariga maqomiga zid bo'lgan har qanday faoliyat, xususan, yerlarning gidrologik holatini o'zgartiruvchi harakatlar; qidiruv ishlari va foydali qazilmalar qazib olish, tuproq qatlamining buzilishi; asosiy foydalanish sifatida o'rmonlarni kesish, ignabargli daraxtlarning smolali yelimini tayyorlash, pichan o'rish, chorvani oziqlantirish; asalari xo'jaligi yuritish, yovvoyi holda o'suvchi ho'l va rezavor mevalar, qo'ziqorin, yong'oq, gullar urug'larini terish va o'simliklardan boshqacha tarzda foydalanish; sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari barpo etish va joylashtirish; ov qilish va hayvonot dunyosi boshqa turlaridan foydalanish (Nizomda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno) begona shaxslar va avtotransport vositalarining umumiy foydalanishdagi yo'l va suv yo'llaridan tashqarida bo'lishi, o'tishi va transport vositasida kesib o'tishi; samolyot va vertolyotlarning suv va havo hududidan 2000 metrdan pastroqdan qo'riqxonalar yoki nazorat qiluvchi tabiatni muhofaza qilish organining ruxsatisiz uchishi, shuningdek, samolyotlar tomonidan hudud ustida tovush to'siqlarini yengib o'tishi; tabiatdagi jarayonlarning tabiiy holatda rivojlanishini buzuvchi, tabiiy kompleks va obyektlar holatiga xavf soluvchi, qo'riqxonalarga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa harakatlarni olib borishga ruxsat etilmaydi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ham bir qator umumiy cheklashlar belgilangan bo'lib, ularga ko'ra muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlarida bog' va hovli uchastkalari ajratib berish, avtomobil yo'llari, quvurlar, elektr uzatish tarmoqlarini va boshqa aloqa vositalarini qurish, sanoat va xo'jalik obyektlarini qurish va ishga tushirish; muhofaza etiladigan tabiiy hududlar faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan mexanik



transport vositalarining harakatlanishi va turishi, chorvani avtomobil yoʻlidan boshqa joylardan haydab oʻtish; qonunchilik bilan taʼqiqlangan boshqa faoliyat turlari bilan mashgʻul boʻlish man etiladi.

Garchi, qisman xoʻjalik foydalanuvida boʻlgan hududlar (cheklangan xoʻjalik faoliyati yuritish) mustaqil hudud sifatida ajratilmasada, ular qonunchilikka binoan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xizmatchilari va ushbu hududda doimiy yashovchi fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish uchun belgilanishi mumkin. Demak, qoʻriqxonaning himoya qilish uchun tashkil etilgan alohida qimmatli ekologik tizim va obyektlarni qamrab olmaydigan maxsus ajratilgan uchastkalarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xizmatchilari va ular oila aʼzolarini, shu jumladan nafaqaga chiqqan xizmatchilarni, shuningdek, ushbu hududda doimiy istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash maqsadida shaxsiy yordamchi xoʻjalik tashkil etish; ularga ulush (chek) yerlar (haydalgan yer va pichanzorlar) berish; oʻtin va daraxt mahsulotlari tayyorlash; shaxsiy isteʼmoli uchun (sotish huquqisiz) qoʻziqorin, yongʻoq, hoʻl mevalar terish; shaxsiy isteʼmol uchun havaskorlik baliq ovi bilan shugʻullanish (bunga faqat istisno hollarda va maxsus ajratilgan uchastkalarda yoʻl qoʻyiladi); ekologik ekskursiyalar uyushtirish va oʻtkazish; tabiat muzeylarini, shu jumladan ochiq osmon ostida tabiiy ekspozitsiyalarni tashkil etishga ruxsat beriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda oʻrnatilgan tartibga koʻra cheklangan xoʻjalik faoliyati yuritish muhofaza etiladigan tabiiy hududga oid individual nizomlar bilan tartibga solinadi. Xususan, “Chotqol davlat biosfera qoʻriqxonasi toʻgʻrisida”gi nizomga muvofiq, qoʻriqxonaning asosiy zonasi hududida xoʻjalik faoliyati qatʼiyan taʼqiqlanadi, qoʻriqxona rahbariyatining ruxsati bilan odamlar va hayvonlar uchun umumiy boʻlgan xavfli kasalliklarning oldini olish uchun zarur veterinariya, yongʻinga qarshi va sanitariya chora-tadbirlari hamda ilmiy-tadqiqotlar oʻtkaziladi. Bufer zona hududida xoʻjalik faoliyati yuritish taʼqiqlanadi.



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda fuqarolarning bo'lishini alohida tartibi o'rnatilgan bo'lib, qo'riqxonada xodimlari hisoblanmagan fuqarolarning yoki qo'riqxonada xodimlarining bo'lishiga qo'riqxonada ma'muriyatining ruxsatnomalari mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Tabiiy kompleks va obyektlarni saqlab qolish, shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar zimmasiga yuklangan boshqa vazifalarni bajarish maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning amal qilishi va uning hududida yashovchi fuqarolarning hayot faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatga yo'l qo'yiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda aniq xo'jalik faoliyati turlari mazkur muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga oid tasdiqlangan alohida individual nizom bilan belgilanadi. Masalan, muhofaza etiladigan tabiiy hududda chorvani o'tlatish faqatgina maxsus ajratilgan uchastkada hamda muhofaza etiladigan tabiiy hudud ilmiy-texnik kengashi tavsiyalariga (qoramol soni, ularni saqlashdagi cheklovlar va sh.k.) va o'rmon qonunchiligining boshqa talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi zarur.

REFERENCE:

1. Ўзбекистонда ер ҳуқуқининг назарий муаммолари. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011, 296-бет
2. Ер ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ, 2002. 245-б.
3. Петров В.В. Экологическое право России. Учебник для вузов. –М.: БЕК, 1995. 466 с.
4. Аликиева А.М. Земельное право. Учебное пособие. 3-изд. –Тюмень: ТГУ, 2010. С. 238
5. Гулак Н.В., Бевзюк Е.А. Земельное право. Учебное пособие. – Оренбург: РИУ ГОУ ОГУ, 2005. С. 62



6.Транин А.А. Национальные парки в СССР: проблемы и перспективы (организационно-правовые аспекты). –М.: Наука, 1991. С. 21.

7.Чубуков Г.В. Земельное право России. Учебник. –М.: Издание г-на Тихомирова М.Ю., 2002. С. 213

8. Павловский И.А. Земельное право. Конспект лекций. –М.: МИЭМП, 2004.

9. Воробьева Л.В. Земельное право: Учебно-метод. пособие. –Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2004. С.26

10.Умаров Д.М. Правовое регулирование охраны заповедников в Республике Узбекистан: Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т.: ТГЮИ, 2009. С. 154-155